



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinosi v.b.: O.Voxidov

«29» may 2025 y.

№

Texnik topshiriq

“Kelajak kasblari va sun‘iy intellekt: Raqamli transformatsiya jarayonida rivojlanish”
o‘quv kursi

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Manzil	100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko‘ch., 18-A
3	Ko‘rsatiladigan xizmat nomi	“Kelajak kasblari va sun‘iy intellekt: Raqamli transformatsiya jarayonida rivojlanish” o‘quv kursi
4	Saralash tanlovini o‘tkazish uchun asos	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonuni; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yildagi PQ-306-sonli “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog’liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli Qarori; - Bank Kuzatuv Kengashining 2024-yil 4-martdagagi 41-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi.

5	Moliyalashtirish - manbai	“Biznesni rivojlantirish banki“ ATBning o‘z mablag‘lari
6	Ijrochiga qo‘yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Sun’iy intellekt sohasidagi trening va seminarlar tashkil etish uchun maxsus IT yo’nalishiga ixtisoslashgan onlayn platforma – xodim amaliy topshiriqlarni bajara olishi va topshiriqni baholash imkoniyati bo’lgan platforma ega bo‘lishi; - Faoliyati aktiv bo’lishi: maxsus ajratilgan binolarda Sun’iy intellekt yoki IT sohasida o‘quv mashg’ulotlarini doimiy o’tayotgan bo’lishi; - Trenerlari xalqaro trening dasturlarida qatnashganligi yoki xorijiy universitetlarda tahsil olganligi; - Sifatlari xizmat ko‘rsatish; - Xizmatlarni to‘liq hajmda va belgilangan muddatda amalga oshirish; - Buyurtmachiga o‘tkazilayotgan o‘quv dasturi to‘g‘risida to‘liq va aniq ma’lumotlarni taqdim etish; - Ijrochiga bog‘liq bo‘lmagan holda, xizmat ko‘rsatishga to‘sinqinlik qiladigan holatlar to‘g‘risida Buyurtmachini darhol ogohlantirish; - Xizmat ko‘rsatish jarayonida Buyurtmachidan qabul qilingan va unga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash, umumiyo foydalanishdagi ma’lumotlar bundan mustasno; - O‘quv kursi o‘tkaziladigan kunlarda quyidagi xususiyatlarga muvofiq, qulay binolarni taqdim etish: <ul style="list-style-type: none"> 1) yetarlicha yorug‘lik, 2) iqlim nazorati tizimiga ega bo‘lish, 3) kamida 200 m² va 400 m² maydonga ega bo‘lishi, 4) o‘rindiqlar soni 65 tadan kam bo‘lmasligi; 5) ekranning uzluksiz ishlashi; 6) ovozni kuchaytirish tizimi mavjudligi.
7	Ijrochi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat mazmuni	<ul style="list-style-type: none"> - Buyurtmachining 30 kishidan iborat rahbar va xodimlari uchun “Suniy intellekt yordamida raqamli menejment va texnologik transformatsiya” o‘quv dasturi bo‘yicha xizmatlar; - Tadbirning umumiyo dasturi (keying o‘rinlarda – Dastur) boshlanishidan 3 (uch) kalender kundan kechiktirmay Ijrochi Buyurtmachi bilan 1 (bitta) umumiyo dasturni ishlab chiqadi va muvofiqlashtiradi; <p>Dasturning tarkibi quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Kirish (umumiyo kirish va maqsadlar haqida qisqacha ma’lumot). ⌚ Taqdimot (ma’lumotlarni tushunarli tarzda yetkazish). ⌚ Kommunikativ (interaktiv muhokamalar, munozaralar va fikr almashuvlar).

	<ul style="list-style-type: none"> ⌚ Workshoplar (amaliy va interaktiv formatdagi maxsus mashg‘ulotlar). ⌚ Amaliy mashqlar (praktik topshiriqlar va loyihalar orqali bilimlarni mustahkamlash). ⌚ Aniq vaqt jadvali: Har bir blok va mashg‘ulotlar uchun aniq vaqt rejasini o‘z ichiga olishi kerak. ⌚ Ijrochi dastur modullarini Buyurtmachining sohalariga (bank, xizmat ko‘rsatish va h.k.) moslashtirib soha-spetsifik keyslar bilan boyitishi zarur. ⌚ Dastur davomida har bir ishtirokchining faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, interaktiv mashg‘ulotlardagi ishtiroki bo‘yicha individual baholashi zarur. <p>Taqdim etish formati: Dastur PDF formatida, umumiy hajmi kamida 5 ta slayd bo‘lgan holda tayyorlanishi zarur.</p> <p>Dasturga quyidagi bo‘limlar kiradi: Kirish qismi, Tadbir maqsadlari hamda quyidagi mavzularni qamrab olishi va ochib berishi lozim bo‘lgan Tarkibiy qismi:</p> <p>1-mavzu: Sun’iy intellekt olamiga chuqur amaliy sho‘ng‘ish</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Sun’iy intellekt asosiy tushunchalari va yo‘nalishlari (nazariya va xalqaro amaliyot misollar asosida). ⌚ Workshop: Sun’iy intellekt texnologiyalari bilan tanishish va boshlang‘ich darajada foydalanishni o‘zlashtirish. ⌚ Praktika: Sun’iy intellekt asosida oddiy vazifalarni hal qilish bo‘yicha guruh va individual amaliy mashqlar. <p>2-mavzu: Sun’iy intellekt texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Xalqaro biznes va ishlab chiqarish sohalaridagi ilg‘or AI amaliyotlari bilan tanishish. ⌚ Workshop: Promt-injiniring asoslari bo‘yicha intensiv amaliy mashg‘ulot. ⌚ Praktika: Sun’iy intellekt texnologiyalarini real ish jarayonlarida qo‘llash bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni bajarish va natijalarni tahlil qilish. <p>3-mavzu: Real sanoat va biznes muammolari yechimida sun’iy intellektdan foydalanish (xalqaro amaliyot asosida keys-championat)</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Xalqaro va mahalliy sanoatdagi muvaffaqiyatlari AI-yechimlarni o‘rganish va tahlil qilish. ⌚ Workshop: Real ishlab chiqarish keyslarini sun’iy intellekt vositalari bilan hal qilish metodologiyasini
--	---

		<p>o‘zlashtirish.</p> <p>① Praktika (Keys-championat): Guruhlarda ishlab chiqarish yoki biznesning haqiqiy muammolari uchun AI yechimlarini ishlab chiqish, amalda sinovdan o‘tkazish va himoya qilish.</p>
8	Buyurtmachining majburiyatlari	<ul style="list-style-type: none"> - Ijrochini Shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va materiallar (arizalar, tushuntirishlar, qo‘srimchalar, protokollar va boshqalar) bilan o‘z vaqtida ta‘minlash; - Shartnomada belgilangan tartibda Ilrochining xizmatni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish.
9	Xizmatning maksimal narxi	Ushbu Shartnoma bo‘yicha Ijrochi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning narxi: 12% QQSni hisobga olgan holda, 510 000 000 (besh yuz o’n million) so‘m.
10	To‘lov shartlari	<ul style="list-style-type: none"> - Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida xizmatlar qiymatining 30% miqdoridagi pul mablag‘larini Ijrochining hisob raqamiga o‘tkazish orqali oldindan to‘lov qilish. - Xizmatlar qiymatining qolgan 70 foizini ko‘rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va topshirish Dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kunidan kechiktirmay to‘lash. - Xizmatlar hajmi o‘zgargan taqdirda, Ijrochining xizmatlari narxi mazkur Shartnomaga tegishli qo‘srimcha kelishuvda belgilanadi.
11	Xizmat ko‘rsatish muddati	2025 yil oxirigacha

kelishuvchilar: A.Azimov

<https://hujjat.brb.uz/?pin=rT93yT73&id=aed3eeb6-7cbe-4c13-be10-0d11cf1ef091>